

Buxoroda birinchi Uzbekistan Airways sayyor seminari bo'lib o'tdi

2024 6 May

Uzbekistan Airways O'zbekiston Respublikasi aeroportlaridan va xorijdan amalga oshirilayotgan aviaqatnovlarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirish bo'yicha bosqichma-bosqich ishlarni davom ettirmoqda. Tarkibiy bo'linmalarning samarali hamkorligi va aviaqatnovlarga xizmat ko'rsatish vaqtida yuzaga keladigan masalalarni tezkor hal etish maqsadida aviakompaniya rahbariyatining muntazam sayyor seminarlarini o'tkazish amaliyoti qayta tiklandi.



Buxoro shahrida bo'lib o'tgan seminarda "Uzbekistan Airways" AJ Boshqaruvi raisi, departamentlar, boshqarmalar va xizmatlar rahbarlari, milliy aviatashuvchining tarkibiy bo'linmalari direktorlari va viloyatlardagi aviakompaniya vakillari ishtirok etdi.



Ushbu uchrashuv doirasida yerdagi xizmat ko'rsatish sifati standartlarini oshirish, "Haj-2024" dasturini amalga oshirishda bo'linmalarning o'zaro hamkorligini tashkil etish, yo'lovchilar uchun yanada qulay sharoitlar yaratish va parvozlarning xavfsizligini yuqori darajada ta'minlash masalalari muhokama qilindi.



Tadbir ishtirokchilari tomonidan bunday seminarlarni muntazam ravishda o'tkazish rahbarlarga bir-biri bilan yanada samarali muloqot qilish, aviakompaniyani rivojlantirish rejalarini birgalikda muhokama qilish, tajriba almashish va bir-birlariga ishlab chiqarish masalalarini tezda hal qilishda yordam berish imkonini taqdim etishi ta'kidlandi.

